



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 346 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoira Azimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinova	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta‘limida qo‘llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari	326
Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi	330
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil	336
Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli	340
Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova	



BANDLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT TOMONIDAN INSTITUTSIONAL MUHIT YARATISHNING ROLI

Dilorom Tojiboyeva

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori, i.f.d.

E-mail: dtajiboeva@mail.ru

Umida Ravshanovna Anvarova

TDIU magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi demografik vaziyat, aholining tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda asosiy omil sifatida iqtisodiyotga investitsiya kiritish orqali bandlikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, bu jarayonda davlat tomonidan zarur institutsional muhit yaratilishining o'rni tahlil qilingan. Investitsiya faoliyatining tahlili va uning ijobiy natijalari mualliflarga institutsional muhit shakllantirishning muhimligini asoslash imkonini berdi.

Kalit so'zlar: investitsiya, bandlik, mehnatga layoqatlilar, aholi soni, institutsional muhit, YAIM.

Abstract: The article analyzes the demographic situation in the Republic of Uzbekistan and emphasizes that the primary approach to reducing poverty and population stratification is ensuring employment through investment in the economy. Particular attention is given to the role of the state in establishing a supportive institutional environment. The analysis of investment activity and its positive outcomes allowed the authors to demonstrate the significant impact of creating an institutional framework.

Key words: investment, employment, labor force, population size, institutional environment, GDP.

Аннотация: В статье рассматривается демографическая ситуация в Республике Узбекистан, а также основные направления снижения бедности и социальной стратификации населения за счёт обеспечения занятости путём инвестирования в экономику. Особое внимание уделено роли государства в создании необходимой институциональной среды. Анализ инвестиционной деятельности и её положительных результатов позволил авторам доказать важность формирования институциональной базы.

Ключевые слова: инвестиции, занятость, трудовые ресурсы, численность населения, институциональная среда, ВВП.

KIRISH

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda bozor mexanizmi demokratik jamiyat oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni yetarli darajada to'liq amalga oshira olmaydi. Ayniqsa, mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning ijtimoiy siyosat orqali mehnat munosabatlariga aralashuvi obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Tartibga solish jarayonida davlat:

- a) mehnat bozoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlar;
- b) mehnat bozoriga bilvosita ta'sir etuvchi tadbirlar orqali faoliyat yuritadi.

Eng muhimi, davlat institutsional muhit – rasmiy institutlar va zarur infratuzilmani shakllantirish orqali mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat bozorini tartibga solishda davlat aralashuvining obyektiv zarurligi, uni demografik siyosat, ijtimoiy xizmatlar bozori, ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligida ham ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasini oshirish muammosini hal etishda davlatning roli beqiyosdir. Chunki Respublikamiz aholi sonining jadal o'sishi bo'yicha jahon mamlakatlari orasida yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar qatoriga kiradi.

Mavjud muammolarni hal etish va oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun keng ko'lamli vazifalar belgilangan. 2025-yil bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo'lishi rejalashtirilgan. Jumladan, ushbu yilda 2 million 200 ming aholining bandligini ta'minlash, 1,2 million kishini



kambag'allikdan chiqarish, 42 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport hajmini 30 milliard dollardan oshirish mo'ljallangan.

2025-yil 3-fevral kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan bildirilishicha, yanvar oyida 277 ming fuqaro ishli bo'lgan, shundan 91 ming nafari doimiy ishga joylashtirilgan, 153 ming kishi esa tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilgan. Shuningdek, ushbu yilda qariyb 14 milliard dollarlik 8 mingta loyiha amalga oshirilishi va natijada 272 mingta doimiy ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlik va ishsizlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy va ilmiy-amaliy maqolalar serob hamda rang-barang bo'lib, ularning barchasini to'liq tahlil qilish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli ayrim asosiy manbalarni ko'rib chiqamiz.

Pshenichnikova S.N. va Pshenichnikov R.S. o'z maqolalarida rivojlangan mamlakatlarda bandlik va investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgangan. Ular ish kuchining takror ishlab chiqarilishi, investitsion-innovatsion va jamg'arma jarayonlari, iqtisodiy o'sish dinamikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan. Qiyosiy tahlil asosida mazkur mamlakatlarni tasniflash taklif qilingan.²

E.B. Nedokhlebova va O.I. Shurakovaning ilmiy maqolasida Uzoq Sharq federal okrugidagi investitsion faoliyat tahlil qilingan. Xabarovsk o'lkasi misolida investitsion faoliyatning bandlik jarayoniga ta'siri ko'rib chiqilgan.³

E.V. Mugaeva o'z tadqiqotida ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning barqarorligi va sifat darajasi xodimning ijtimoiy rivojlanish jarayoniga qanchalik tortilganiga hamda hozirgi yosh avlodning barkamollik darajasiga bog'liqligini ko'rsatgan. Aholining bandligi esa uning raqobatbardoshligi bilan bog'liq holda tahlil qilingan.⁴

M.M. Mirzakarimova va Sh. Jumakulovlarning 2021-yilda "Navro'z" nashriyatida chop etilgan ilmiy-amaliy monografiyasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholining bandligi tarkibidagi rivojlanish tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan. Xususan, davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa yoshlar bandligini oshirish, norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.⁵

D. Tojiboyeva tadqiqotida agrar sektorda bandlik va investitsion faoliyatning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan va ularni hisobga olgan holda investitsion muhitni shakllantirish bo'yicha takliflar berilgan.⁶

A.X. Shoening 2016-yilgi maqolasida ish o'rinlarini yaratishda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tilgan⁷ D. Nasimov maqolasida O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli iqtisodiyot rivojida zamonaviy bandlik shakllaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.⁸ A.S. Asraqulov esa norasmiy bandlikka konseptual yondashuvlar asosida uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan va uni tartibga solish zarurligini asoslab bergan.⁹ Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bandlik va investitsiyalar o'zaro bog'liqligi asosida iqtisodiy o'sishga institutsional yondashuv bilan ishlangan izchil tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Shu bois, ushbu maqola orqali bu bo'shliqni to'ldirishga urinish qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik hisobotlari,

- 1 ЎР Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2025 йил 3-февралдаги Аҳоли бандлигини таъминлаш ва инвестициялар жалб қилиш бўйича амалга оширилаётган ишларюзасидан ўтказилган йиғилишдаги нутқидан./ <https://president.uz/oz/lists/view/7849>; <https://kun.uz/ru/news/2025/02/03/v-2025-godu-planiruyetsya-obespechit-zanyatost-52-milliona-chelovek>
- 2 Пшеничникова С.Н., Пшеничников Р.С., Влияние занятости и инвестиций на экономический рост в странах «большой восьмерки»/ <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-zanyatosti-i-investitsiy-na-ekonomicheskiy-rost-v-stranah-bolshoy-vosmerki>
- 3 Недокhlebova E.B., Шуракова О.И. Влияние инвестиционных процессов в регионе на занятость населения / Вестник Хабаровского государственного университета экономики и права. 2019. № 2 (100). -с. 27-34. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-investitsionnyh-protsessov-v-regione-na-zanyatost-naseleniya>
- 4 Мугаева Е.В. Особенности функционирования рынка труда и занятости населения / DOI:10.24412/2411-0450-2022-6-2-80-83 Journal of Economy and Business, vol 6-2 (88), 2022.- с. 80-83
- 5 Мирзакаримова М.М., Жумакулов Ш. Инновацион иқтисодиёт шариотида аҳоли иш билан бандлиги таркибининг ривожланиш тенденциялари ва устувор йўналишлари. //Монография. –Т.: "Наврўз" нашриёти, 2021. -232 б.
- 6 Таджикиева Д. Особенности аграрного сектора и роль институтов в инвестиционной деятельности. /Региональные проблемк преобразования экономики. 2020 № 4. -С. 18-26.
- 7 Шоев, А. Х. Особенности государственного регулирования рынка труда в Узбекистане / А. Х. Шоев. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 9 (113). – С. 760-762. – URL: <https://moluch.ru/archive/113/28751/> (дата обращения: 10.03.2025).
- 8 Насимов Д. Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шариотида иш билан бандлиқнинг замонавий шакллари/ Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017 йил
- 9 Асрақулов А. С. Норасмий бандликка концептуал ёндашувлар ва унга таъсир этувчи омиллар таҳлили / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil



xususan, aholi soni va mehnat resurslariga oid 2010–2023-yillar uchun Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlaridan olindi. Ma‘lumotlar dinamik qiyosiy tahlil, foizli o‘shish ko‘rsatkichlari hamda nisbiy ulushlar asosida statistik usulda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bandlik bilan investitsiya o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik va ularning o‘zaro ta‘sirini o‘rganishda tamal toshini buyuk iqtisodchi J.M. Keynes qo‘ygan. Uning mashhur asari – *“Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”*¹⁰da bozor iqtisodiyoti vaqtinchalik zarbalar (shoklar)dan so‘ng tabiiy ravishda resurslarning to‘liq bandlik holatiga qaytadi, degan neoklassik nazariyaning postulatlarini (ya‘ni isbotsiz qabul qilingan farazlari) rad etiladi.

Ma‘lumki, keynschilik va marksistik nazariyalarda investitsiya bandlik va ishsizlikni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Farqi shundaki, Keynes uchun ishsizlikning sababi – yetarli darajada investitsiya qilinmasligi, Marksizmcha esa bu holat kapitalning organik tuzilmasi (ya‘ni doimiy kapitalning o‘zgaruvchan kapitalga [C:V] nisbati) va texnik taraqqiyot bilan bog‘liq. Ushbu nisbat hozirgi kunda ish o‘rni qiymatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

J.M. Keynes ta‘kidlaganidek, iqtisodiy tizimlarda histerezis (yunonchadan – orqada qolish, kechikish) ehtimoli mavjud. Bu esa samarali institutsional aralashuv va faol davlat siyosatisiz salbiy holat uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkinligini anglatadi.¹⁰

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining tabiiy o‘shish jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega:

bir tomondan, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun qo‘shimcha ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi;

ikkinchi tomondan esa, ishsiz aholi kontingentining shakllanishiga olib keladi.

Республикамиз aholisi soni bo‘yicha jahon miqyosida 41-o‘rinni egallab, mehnat resurslari va mehnatga layoqatli sonining ortib borishi natijasida ularni ish bilan ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda 2010–2023-yillarda aholi va mehnat resurslari o‘zgarishi dinamikasi.

Yillar	Doimiy aholi soni (ming kishi)	Avvalgi yilga nisbatan aholi o‘shishi (%)	Mehnatga layoqatli aholi soni (ming kishi)	Mehnatga layoqatli aholi o‘shish sur‘ati (%)	Mehnatga layoqatli aholi / doimiy aholi (%)	Bandlar / mehnatga layoqatli aholi (%)
2010	28001,4	100,0	16533,9	100,0	59,0	70,3
2011	29123,4	104,0	17169,6	103,8	58,9	69,4
2012	29555,4	101,5	17451,5	101,6	59,0	70,0
2013	29993,5	101,5	17698,7	101,4	59,0	70,7
2014	30492,8	101,6	17937,8	101,3	58,8	71,4
2015	31022,5	101,7	18167,7	101,3	58,5	71,8
2016	31575,3	101,8	18371,7	101,1	58,2	72,4
2017	32120,5	101,7	18549,0	100,9	57,7	72,9
2018	32656,7	101,6	18712,1	100,9	61,1	70,9
2019	33255,5	101,8	18857,6	100,8	56,7	71,8
2020	33905,2	101,9	19075,7	101,1	56,2	69,4
2021	34 558,9	101,9	19237,6	100,9	55,7	70,4
2022	35 271,3	102,0	19393,0	100,8	55,0	70,7
2023	36 024,9	102,1	19585,4	101,0	54,4	71,5
2023/ 2010	128,6 %		118,5%			

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2010–2023-yillar davomida aholining o‘shish sur‘ati deyarli barqaror bo‘lib, bu davrda 128,6 % ga oshgan (2011-yil bundan mustasno). Mehnat resurslari soni 2010-yilda 16726,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu umumiy aholining 59,7 % ini, mehnatga layoqatli aholi esa 59,0 % ini tashkil etgan.

10 Кейнс Дж. М. (2007). Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. Пер. с англ. – М.: Эксмо. – 960 с. [The General Theory of Employment, Interest, and Money. Per. English – M.: Exmo. – 960 p. (In Russian)]



2023-yilga kelib, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 54,8 % va 54,4 % ga kamaygan. Bu yoshlar ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mehnatga layoqatli sonining o'sish sur'ati 100–101,6 % atrofida tebrangan va davr mobaynida 118,5 % ga oshgan. Ularning umumiy aholiga nisbati barqaror ravishda pasayib borgan. Bu esa demografik o'sish fonida yoshlar ulushining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Bandlarning mehnatga layoqatli sonining nisbati 69,4–71,8 % oraliqida tebrangan, faqat 2016–2017-yillarda 72 % dan oshgan. Ularning son jihatidan ortib borayotgani foizlardagi o'zgarishdan ham ayon. Bu esa bandlikni ta'minlash orqali taraqqiyot strategiyasini yanada chuqurlashtirish zarurligini bildiradi.

Aholining tabaqalanishi va kambag'allikni keskin kamaytirishning eng samarali yo'li – bu yangi ish o'rinlari yaratishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu uchun iqtisodiyotga investitsiya kiritish muhim. Investitsiyalar nafaqat ish o'rinlarini yaratadi, balki takror ishlab chiqarishda iqtisodiyot tuzilmasini yangilaydi, innovatsion g'oyalarni tajriba-sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Ish o'rinlari yaratish uchun ishlab chiqarish vositalari – ya'ni yer (N), kapital (K) va ularni ishlatadigan malakali kadrlar (L) tayyorlashga investitsiya zarur. Jumladan, xorijiy investitsiyalar aholining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega.

Hozirda aholi jon boshiga yaratilayotgan milliy daromad jahon o'rtachasidan past bo'lib, optimal variant sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga urg'u berilmoqda. Buning uchun davlat tomonidan zarur institutsional muhit yaratilmoqda. "Investitsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlar va butun mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning asosiy manbai hisoblanadi. Iqtisodiyotni istiqbolda yuksaltirish uchun investitsion jarayonni amalga oshirishda rasmiy va norasmiy institutlar – institutsional muhit asosiy rol o'ynaydi"¹¹.

2-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan rasmiy institutlar.

№	Me'yoriy-huquqiy hujjat nomi	Hujjat raqami	Kuchga kirgan sana
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	–	Amaldagi
2	"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun ¹²	O'RQ-598-son	2019-12-25
3	"To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni	PF-3594-son	2005-04-11
4	"To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni	PF-4434-son	2012-04-10
5	"Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va tartib-taomillarni soddalashtirish to'g'risida" Prezident farmoni	PF-4933-son	2017-01-17
6	"Investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident farmoni	PF-5495-son	2018-08-01
7	"Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident farmoni ¹³	PF-5643-son	2019-01-28
8	"Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risida" Prezident qarori ¹⁴	PQ-4300-son	2019-04-29
9	"O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish to'g'risida" Prezident qarori ¹⁵		

Institutsional muhitning markazida rasmiy institutlarning faoliyati va ular tomonidan belgilanadigan huquqiy imkoniyatlar turadi. Ular iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. 2-jadval ma'lumotlari asosida keyingi yillarda investitsiyalar va investitsion faoliyatga qaratilayotgan e'tiborning sezilarli darajada oshgani yaqqol ko'rinadi.

Eng muhimi, Respublikamizda hunarmandchilik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes muhiti yaxshilanishi, aholi qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bo'yicha imtiyozlar, tartibotlar, qoidalar va imkoniyatlarni nazarda tutuvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

11 Тожибоева Д. Хорижий инвестицияларни ўзбекистон иқтисодиётига жалб этиш имкониятларининг тенденцияси: институционал ёндашув / Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар.2022, №3. -Б. 122-131

12 <https://lex.uz/mact/4664142>

13 <https://lex.uz/docs/4182345>

14 <https://lex.uz/docs/4312750>

15 <https://lex.uz/docs/5801123>



Shuningdek, iqtisodiyotga davlat byudjeti, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini takomillashtirish jamg'armasi hamda boshqa manbalar orqali investitsiya yo'naltirilmoqda. Bu esa ish o'rinlari yaratishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijada iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va yaratilgan ish o'rinlari quyidagicha o'zgarishlarni namoyon etdi.

3-jadval. O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va ish o'rinlarining o'sish tendensiyasi¹⁶.

Yil	YAIM hajmi (mlrd so'm)	Investitsiyalar (mlrd so'm)	Kapital / YAIM (%)	Bandlik (ming kishi)	O'sish (%)	Yaratilgan ish o'rinlari (kishi)	Ishsizlar (ming kishi)
2010	78 936,6	16 463,7	20,8	11 628,4	100,0	306 414	658,2
2011	84 856,2	16 801,5	19,8	11 919,1	102,5	290 700	622,4
2012	90 249,2	18 410,8	20,4	12 223,8	102,5	595 400	626,3
2013	98 336,2	20 749,0	21,1	12 523,3	102,4	299 500	639,7
2014	105 416,4	22 770,0	21,6	12 818,4	102,3	295 100	687,0
2015	113 217,2	24 907,8	22,0	13 058,3	101,8	239 900	709,4
2016	120 123,4	25 946,6	21,6	13 298,4	101,8	240 100	724,0
2017	125 529,0	31 005,6	24,7	13 520,3	101,7	221 900	837,0
2018	131 931,0	40 239,0	30,5	13 273,1	98,2	247 200	1 368,6
2019	139 319,1	55 727,6	40,0	13 541,1	102,0	265 000	1 335,3
2020	141 548,2	53 080,6	37,5	13 236,4	97,7	-301 700	1 561,0
2021	152 932,2	54 902,7	35,9	13 538,9	102,2	302 500	1 441,8
2022	62 108,1	48 146,1	29,7	13 706,2	101,2	167 300	1 332,7
2023	172 321,0	57 555,2	33,4	14 014,2	102,2	308 000	1 024,1
2023/2010	218,3 %	349,6 %	-	120,5 %	-	-	155,6 %

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2023-yillar mobaynida yaratilgan YAIM hajmi 218,3 % ni tashkil etgan yoki 14 yil davomida deyarli 2,2 baravar oshgan. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar esa barqaror ravishda yil sayin ortib, shu davr ichida 349,6 % ga yoki 3,5 baravar ko'paygan.

2010-yilda investitsiyalarning YAIMga nisbati 19,8–22,0 % atrofida bo'lgan bo'lsa, 2018–2023-yillar davomida bu ko'rsatkich 29,7–40,0 % gacha yetgan. Iqtisodiyotda bandlik 120,5 % ga oshgan bo'lib, bu mehnatga layoqatli o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, ishsizlar soni ham ortgan: 2010-yilda ularning mehnatga layoqatliarga nisbati 4 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 5,3 % ga yetgan.

Bu yillarda faqat 2020-yilda (COVID-19 pandemiyasi sababli) ish o'rinlari 301,7 ming taga qisqargan. Qolgan yillarda esa har yili 167,3 mingdan 595,7 minggacha yangi ish o'rinlari yaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bandlik va investitsiya o'rtasidagi bevosita bog'liqlik hamda ularning o'zaro ta'siri, investitsiyaning multiplikatsion effekti ilk bor J.M. Keynes tomonidan asoslab berilgan. U aynan davlat tomonidan investitsion muhit yaratish orqali mamlakatni iqtisodiy tushkunlikdan, aholining esa kambag'allikdan chiqarish mumkinligini nazariy jihatdan ko'rsatgan.

O'zbekistonda qulay investitsion institutsional muhitning yaratilishi iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini ko'paytirishga zamin yaratdi. Endilikda muhim vazifa – qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga qat'iy rioya qilish va ularning to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat.

Eng muhim masalalardan biri – zamonaviy innovatsion o'zgarishlar sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun zarur loyihalarni ishlab chiqish, ularni tanlash va bosqichma-bosqich amalga oshirishdir. Bunda investitsion institutsional muhitni rivojlantirish, holat o'zgarishlarini inobatga olgan holda oldinga intilish, shuningdek, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga investitsiya yo'naltirish zarur. Bu jarayonda ham rasmiy, ham norasmiy institutlarning, xususan, axloqiy qadriyatlarining ahamiyati katta.

Investitsiya loyihalarini tanlashda ularning tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi salohiyatini inobatga olish lozim. Investitsiyalarni hozirgi dolzarb muammolar, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish, ayniqsa chiqindilar bilan bog'liq sohalarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining

16 <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/investments>



2023–2025-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini to'liq amalga oshirish, nafaqat rasmiy, balki norasmiy me'yorlar – ajdodlardan meros bo'lgan axloqiy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyani ham e'tiborga olish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ЎР Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2025-yil 3-fevraldagi Аҳоли бандлигини таъминлаш ва инвестициялар жалб қилиш бўйича амалга ошириладиган ишлар юзасидан ўтказилган йўғилишдаги нутқи. / <https://president.uz/oz/lists/view/7849>; <https://kun.uz/ru/news/2025/02/03/v-2025-godu-planiruyetsya-obespechit-zanyatost-52-milliona-chelovek>
2. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.
3. Пшеничникова С.Н., Пшеничников Р.С. Влияние занятости и инвестиций на экономический рост в странах «большой восьмерки». <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-zanyatosti-i-investitsiy-na-ekonomicheskiy-rost-v-stranah-bolshoy-vosmerki>
4. Недохлебова Е.Б., Шуракова О.И. Влияние инвестиционных процессов в регионе на занятость населения. / Вестник Хабаровского государственного университета экономики и права. 2019. № 2 (100). – С. 27–34. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-investitsionnyh-protsessov-v-regione-na-zanyatost-naseleniya>
5. Мугаева Е.В. Особенности функционирования рынка труда и занятости населения. / DOI:10.24412/2411-0450-2022-6-2-80-83 Journal of Economy and Business, vol. 6-2 (88), 2022. – С. 80–83
6. Мирзакаримова М.М., Жумақулов Ш. Инновацион иқтисодиёт шароитида аҳоли иш билан бандлиги таркибининг ривожланиш тенденциялари ва устувор йўналишлари. // Монография. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2021. – 232 б.
7. Таджибаева Д. Особенности аграрного сектора и роль институтов в инвестиционной деятельности. / Региональные проблемы преобразования экономики. 2020 № 4. – С. 18–26.
8. Шоев А.Х. Особенности государственного регулирования рынка труда в Узбекистане. / Молодой ученый. – 2016. – № 9 (113). – С. 760–762. – URL: <https://moluch.ru/archive/113/28751/> (дата обращения: 10.03.2025)
9. Насимов Д. Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида иш билан бандликнинг замонавий шакллари. / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь–февраль, 2017-йил
10. Асрақулов А.С. Норасмий бандликка концептуал ёндашувлар ва унга таъсир этувчи омиллар таҳлили. / “Иқтисодийот ва innovatsion texnologiyalar” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь–декабрь, 2019-йил
11. Тожибоева Д. Хорижий инвестицияларни Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этиш имкониятларининг тенденцияси: институционал ёндашув. / Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар. 2022, № 3. – Б. 122–131
12. <https://lex.uz/mact/4664142>
13. <https://lex.uz/docs/4182345?ONDATE=30.01.2019>
14. <https://lex.uz/docs/4182345?ONDATE=30.01.2019>
15. <https://lex.uz/docs/43127524> // <https://lex.uz/docs/4312750>
16. <https://lex.uz/docs/5801123>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>